funksiyalarini saqlab qolish ularning zamonaviy sharoitga muvaffaqiyatli moslashuvini, mazkur funksiyalarning yo‘qolishi esa marosimlarning inqirozini anglatishini asoslab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Qodirov B., Tursunov R. (2024). Globallashuv sharoitida milliy marosimlarning transformatsiyasi: sotsiologik va konstruktivistik yondashuv (P.Burdye va E.Xobsbaum nazariyalari asosida). Toshkent, Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 112–118-betlar.

(2). Xudoyberdiyeva G. (2026). Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda milliy marosimlar va urf-odatlarning tarbiyaviy (regulyativ) ahamiyati. “Uzluksiz ta’lim” ilmiy-metodik jurnali, 2-son, 45–51-betlar.

(3). Toshpo‘latov A. (2023). E.Dyurkgeym va B.Malinovskiy asarlarida marosimlarning integrativ va kompensator funksiyalari tahlili. “Ijtimoiy fanlar xabarnomasi”, 3(4), 77–84-betlar.

(4). Go‘kalp Ziyo. (2022). Turkchilik asoslari (ilmiy-izohli, to‘ldirilgan yangi nashr). Toshkent, “Akademnashr”.

(5). Djurayeva N. (2025). Marosimlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va o‘tish marosimlari (A. van Gennep va V.Terner nazariyalari talqini). Monografiya, Samarqand, SamDU nashriyoti, 56–61-betlar.

(6). Connerton P. (2023). How Societies Remember (Reprint edition with modern critical introduction). Cambridge University Press, p. 41–45.

Alimov Akmalbek Abdumajidovich (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Davlat boshqaruvi yo‘nalishi tinglovchisi; akmalbekalimov001@gmail .com; Orcid: 0104-1987-2003-1991)

EKSTREMISTIK VA RADIKAL G‘OYALARNING ASOSIY MOHIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ekstremistik va radikal g‘oyalarning mazmun-mohiyati, ularning vujudga kelish omillari hamda jamiyat xavfsizligi, ijtimoiy barqarorlik va fuqarolar ongiga ko‘rsatadigan salbiy ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarida yoshlarni yot g‘oyalardan himoya qilish, bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va diniy sabr-toqatni mustahkamlash ekstremistik va radikal g‘oyalarning oldini olishning muhim sharti ekanligi asoslab berildi.*

Kalit so‘zlar: *ekstremizm, radikalizm, ekstremistik g‘oyalar, radikal g‘oyalar, mafkuraviy tahdid, diniy ekstremizm, terrorizm, bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, ma’naviy xavfsizlik, yoshlar tarbiyasi, axborot xavfsizligi.*

ОСНОВНАЯ СУЩНОСТЬ ЭКСТРЕМИСТСКИХ И РАДИКАЛЬНЫХ ИДЕЙ

Аннотация. *В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы сущность экстремистских и радикальных идей, факторы их возникновения, а также их негативное влияние на безопасность общества, социальную стабильность и общественное сознание. По результатам исследования обосновано, что защита молодежи от деструктивных идей, укрепление толерантности, межнационального согласия и религиозной терпимости являются важными условиями предупреждения распространения экстремистских и радикальных идей.*

Ключевые слова: *экстремизм, радикализм, экстремистские идеи, радикальные идеи, идеологическая угроза, религиозный экстремизм, терроризм, толерантность, межнациональное согласие, духовная безопасность, воспитание молодежи, информационная безопасность.*

THE ESSENTIAL NATURE OF EXTREMIST AND RADICAL IDEOLOGIES

Annotation. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the nature of extremist and radical ideas, the factors contributing to their emergence, and their negative impact on public security, social stability, and public consciousness. The findings of the study substantiate that protecting young people from destructive ideologies, strengthening tolerance, interethnic harmony, and religious tolerance are essential prerequisites for preventing the spread of extremist and radical ideas.*

Keywords: *extremism, radicalism, extremist ideas, radical ideas, ideological threat, religious extremism, terrorism, tolerance, interethnic harmony, spiritual security, youth education, information security.*

Kirish (Introduction). Globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli axborot makonining kengayishi sharoitida ekstremistik va radikal g‘oyalarning turli vositalar orqali tarqalish ko‘lami ortib bormoqda. Bunday g‘oyalar jamiyat xavfsizligi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikka jiddiy tahdid soladi. Ayniqsa, yoshlarning mafkuraviy ongi va dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ularni yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolish xavfini kuchaytiradi. Shu bois ekstremistik va radikal g‘oyalarning mazmun-mohiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning kelib chiqish omillari hamda tarqalish mexanizmlarini aniqlash, shuningdek, ushbu tahdidlarga qarshi samarali

profilaktik choralarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb ilmiy va amaliy masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, bag‘rikenglik va fuqarolik mas’uliyatini yuksaltirish hamda jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (materials and methods). Ekstremizm XX asr dunyo hamjamiyati uchun dahshatli so‘z va tushuncha hisoblanadi. “Ekstremizm” (fransuzchadan “extremisme” lotinchadan “extremis”) atamasi XX asrning boshidan beri faol qo‘llanila boshlandi. Odatda, “ekstremizm” tushunchasi siyosat va mafkuradagi ekstremal qarashlar va harakatlarga rioya qilishni anglatadi. V.N.Panin ta’kidlashicha, “sovuq urush tugaganidan keyin, ekstremizm eng katta xalqaro muammoga aylandi, uning milliy xususiyatlari yo‘q, u shafqatsizlik va ekstremistlarning orqa-oldiga qaramasdan harakatlanishi bilan ajralib turadi. Global axborot makonining paydo bo‘lishi ekstremizmning yanada o‘sish ehtimolini oshirdi, u tobora ko‘proq halokatli shakllarga ega bo‘la boshladi” [1;26-b.].

Ekstremizm ma’naviy tahdidlarning bir navi bo‘lib, undan foydalanuvchi shaxslar yoki tashkilotlar o‘zlariga mansub bo‘lgan tarafdorlarini radikal harakatlarga chorlovchi, mamlakatdagi tinchlik va osoyishtalikni izdan chiqarishga intiluvchi, mavjud konstitusion tuzumni ag‘darib tashlashga da’vat etuvchi tajovuzkor siyosiy faoliyat hisoblanadi. Ekstremistik g‘oyalar kishida zulm va zo‘ravonlik his-tuyg‘ularini uyg‘otadi. Ekstremistik g‘oyalar o‘zgalarga zo‘ravonlik qilish, o‘zgalarga ozor berishga undaydi. O‘zgalarga ozor berish, o‘zgalarga zo‘ravonlik qilish esa bu zulmdir. Biroq ushbu hodisaning mutaxassislar tomonidan turlicha ta’riflanishi uni ilmiy asoslash va talqin qilish zarurligidan dalolat beradi.

O‘rganilgan adabiyotlar tahlilidan hozirgi kunga kelib, “ekstremizm” tushunchasining aniq ta’rifi mavjud emasligi ma’lum bo‘ldi. Zamonaviy tadqiqotchilarning ekstremizmga bergan ta’riflarida farqli va o‘xshash jihatlar mavjud. Masalan, N.N.Afanasev: “Ekstremizm har qanday mutanosiblik tuyg‘usini ilk inkor etish demakdir. U o‘z niyatlarini darhol va ko‘p vaqt davomida amalga oshirishga harakat qilish maqsadida borliq haqidagi buzilgan, deformatsiyalangan tasavvurlar bilan ishlaydi. Tilda bu hukmlarning ekstremalligi, qat’iyligida ifodalanadi. Amalda, bu muqarrar ravishda zo‘ravonlikka olib keladi,” – deya ekstremizmga ta’rif beradi [2;56-b.]. Siyosiy psixologiyada ekstremizmning iqtisodiy, siyosiy, millatchilik, diniy, ekologik, ma’naviy kabi turli yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan. Bir qator tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, real hayotda ekstremizm shakllari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, odatda, sof shaklida namoyon bo‘lmaydi.

Muhokama (Обсуждение/Discussion). Ekstremizmga olimlar tomonidan berilgan ta’riflar va ushbu tushunchaning turli davlatlarnig qonunchiligida aks etishidan kelib chiqqan holda, uni 3 guruhga bo‘lib tadqiq etadi.

Birinchi guruhga o‘zbekistonlik olimlarning ekstremizmga konstitutsiyaviy tuzumga nisbatan xavf va tahdid darajasidan kelib chiqqan holda bergan ta’riflari kiritilgan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ekstremizmga (lot. Extremus–eng oxirgi; o‘taketgan, ashaddiy; keskin) siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulodda usullar bilan yo‘l tutishga, keskin choralar ko‘rishga tarafdorlik deb ta’rif berilgan. O‘zbekiston Respublikasining 30-iyul 2022-yildagi “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘RQ-486-qonunning 3-moddasiga asosan, “Ekstremizm – ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga, hokimiyatni zo‘rlik ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o‘zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi” deb ta’rif berilgan [3]. Yana shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, bugungi kunda O‘zbekistogn Respublikasida “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun mavjud bo‘lsa-da, jinoyat kodeksida “ekstremizm” nomli maxsus moddaning o‘zi mavjud emas”.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 244, 246-moddalarning barchasida faqat ekstremizmning mazmun-mohiyati to‘liq ochib berilmaganligi bois, uning diniy turi uchungina jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan, lekin siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, etnik, millatchilik va boshqa turlari uchun jinoiy javobgarlik belgilanmagan [3]. Bu esa O‘zbekistonda ekstremizmning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, etnik, millatchilik va boshqa turlari borasida jinoyat qonunchiligida bo‘shliqlar borligini, bu yo‘nalisda tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatmoqda. Ayni vaqtda esa ekstremizmning yuqoridagi turlari yuzasidan jinoiy holatlar kuzatilganda javobgarlik masalalarida qaror qabul qilishda murakkablik va qiyinchilklarni yuzaga keltiradi.

Ikkinchi guruhdagi ta’riflarda MDH davlatlarning qonunchiligida ekstremizm o‘rnatilgan davlat tuzilmalarini va jamoat institutlarini inkor etish, barqarorlikka putur yetkazish, o‘z hokimiyat intilishlariga erishish uchun o‘rnatilgan tartibni buzish istagi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy-siyosiy hodisa va siyosiy kurash shakllaridan biri sifatida talqin etiladi [4;2-b.; 5;8-b.].

Zamonaviy lingvistik adabiyotlarda ham ekstremizm tushunchasi faqat siyosat bilan bog‘langan va bir tomonlama ta’rif berilgan. Masalan, S.I.Ojegov ekstremizmni (siyosiy) “o‘z maqsadlariga erishish uchun ekstremal qarashlarga sodiqlik, ekstremal choralarni qo‘llash (shu jumladan, terroristik hujumlar va garovga olish)”, deya talqin qiladi [6;340-b.]. Katta ensiklopedik lug‘atda ekstremizm “turli konfessiyalar, siyosiy tashkilotlar va ekstravagant ijtimoiy guruhlarning o‘ta aqidaparast va radikal g‘oyalari mafkurasi, nazariyasi va amaliyoti” deb ta’rif berilgan [7;967-b.]. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ekstremizmga (lot. extremus – eng oxirgi; o‘taketgan, ashaddiy; keskin) siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulodda usullar bilan yo‘l tutishga, keskin choralar ko‘rishga tarafdorlik deb ta’rif berilgan. Shundan kelib chiqib, ekstremizmni muayyan maqsadlardan kelib chiqib, ijtimoiy-siyosiy subyektlarning (davlat, xalq, millat, etnik guruhlar, jamoat birlashmalari kabi) tinchligini buzishga, boshqaruv siyosatiga qarshi qaratilgan va turli nizolarni vujudga keltirishga asoslangan xatti-harakatlarning majmuyi deyilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchi guruhga oid xorijiy davlatlar ta’riflarida ekstremizm keskin fikr sifatida baholanadi hamda jinoiy javobgarlik faqat uning zo‘ravon ekstremizm navi uchungina belgilanganligi e’tirof etiladi. Yevropa Kengashi Parlament Assambleyasining 2003-yil 29-sentabrda qabul qilingan 1344-rezolusiyasida quyidagicha ta’rif mavjud: “Ekstremizm–parlament demokratiyasi tamoyillarini ochiq yoki pinxona inkor etuvchi hamda murosasizlik, begonalashtirish, ksenofobiya, antisemitizm va millatchilik mafkurasi va amaliyotiga asoslangan siyosiy faoliyat shaklidir [8]. Umuman olib qaraganda, ko‘pchilik olimlar jamoasi ekstremizmning siyosiy, diniy, ijtimoiy, ekologik, antiglobalistik shakllarini ajratadilar. Miqyosiga ko‘ra, ushbu hodisani mahalliy, milliy yoki mahalliy, xalqaro ekstremizmga bo‘lishadi. Yuqoridagi fikrlarga qo‘shimcha ravishda, ekstremistik g‘oyalarni tarqatishda an’anaviy axborot vositalari bilan bir qatorda, internet tarmoqlari va raqamli platformalardan ham keng foydalanilayotganini ta’kidlash lozim.

Maqolani yozishda analiz, sintez, tarixiylik va germenevtika usullaridan keng foydalanildi.

Natijalar (Результаты/Results). Tadqiqotchi M.Y.Yaxyoyevning ta’kidlashicha, “uni siyosiy yoki boshqa o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi, deyish mumkin emas, zero, u inson faoliyatining ko‘plab sohalarida va shaxslararo muloqotda (ichki ekstremizm), sinflar, partiyalar, davlatlarning o‘zaro munosabatlarida (siyosiy ekstremizm), qabilalar, elatlar, millatlar aro munosabatlarda (etnik ekstremizm) ham uchraydi”. Siyosiy ekstremizm eng keng tarqalgan ekstremizm turi hisoblanadi. Ko‘pincha, bunday faoliyatga siyosiy partiyalar va harakatlar, mansabdor shaxslar va oddiy fuqarolar ham aralashib qolgan bo‘ladi. Siyosiy ekstremizmga olib keladigan omillar jumlasiga ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar, aholining katta qismi turmush darajasining keskin pasayishi, siyosiy institutlar va hukumat tuzilmalarining deformatsiyasi, ularning ijtimoiy rivojlanishning dolzarb muammolarini hal qila olmasligi, siyosiy rejimning totalitar xarkteri, muxolifatni hokimiyat tomonidan bostirilishi, konstitutsiyaviy tuzumni zo‘ravonlik usullari bilan o‘zgartirishga, mavjud davlat tuzilmalarini yo‘q qilishga va totalitar diktaturani o‘rnatishga qaratilgan noqonuniy faoliyatlar kiradi.

Siyosiy ekstremizmning o‘zini ham quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. “O‘ng qanot” deb ataladigan mafkura davlatning “pokligi” g‘oyasini ilgari suradi, uning tarafdorlari muhojirlar va boshqa davlatlar vakillariga qarshi bo‘ladilar.

2. “Chap qanot” ekstremistlari bir qator xususiyatlardan qat’i nazar, tenglikni o‘rnatishni, sinflarga bo‘linishga va shu kabi boshqa holatlarga ham qarshi chiqishni xohlashadi.

Diniy ekstremizm yana bir keng tarqalgan ekstremizm ko‘rinishlaridan hisoblanadi. Uning asl mohiyati boshqa din yoki e’tiqod vakillariga nisbatan murosasizlikdan iborat. Shu bilan birga, davlat institutlarini egallab olib tizimni o‘zgartirish g‘oyalari, ko‘pincha, e’tiqodni niqob qilib etnik nafratni qo‘zg‘atishga qaratilgan bo‘ladi.

Jahondagi turli mamlakatlar olimlari tadqiqotlari va tahlillari diniy ekstremizmini kompleks tarixiy tadqiq etish uchun uning quyidagi qator umumiy jihatlarini shakllantirishga imkoni beradi:

– diniy ekstremizning ijtimoiy bazasi, asosan, turli tuman ruhiy lahzalar va ijtimoiy inqirozlar hisoblanib, ekstremizm ana shu jarayonlarning oqibati, keyiroq esa ana shu vaziyatni keyingi rivojlanish omili sifatida namoyon bo‘ladi;

– diniy ekstremizm qayta tiklash va qayta o‘sib chiqish ijtimoiy bazalariga ega bo‘lib, millatlararo xarakter kasb etmoqda. Lekin u butunlay yaxlit mafkura sifatidagi holatini doimo o‘zida saqlagan holda ekstremizning siyosiy maqsadlari va ularni amalga oshirish faoliyati davomida u yoki bu tuzilmalar vositasida harakat qilishi aniq namoyon bo‘ladi;

– diniy ekstremizmning tarqalishi, odatda, ko‘proq lokal inqiroz muhitini paydo qiladigan ichki va mahalliy sabablarga bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan bir vaqtda, uning qurolli faolligini kengayishi aksariyat ho-

latlarda tashqi shart-sharoitlar va omillar ta'sirida (ularning xalqaro markazlari yordamida) kechishi ko'zga tashlanadi [9].

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy ekstremizm, ijtimoiy tengsizlik va moddiy farovonlik jihatidan ko'p-lab kichik guruhlarga tabaqalanish sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Bu holat tobora ko'proq odamlarning ijtimoiy ekstremizm nimani anglatishini bilib olishiga sabab bo'ladi. Bu, ayniqsa, yoshlarga xos bo'lgan ijtimoiy tengsizlik tuyg'usiga asoslangan mafkuradan seziladi. Bunda bir ijtimoiy sinf boshqasidan, masalan, kambag'allar boylardan ustun bo'lishi kerak, degan g'oya ilgari suriladi va aniq harakatlar bilan qo'llab-quvvatlanadi.

Milliy ekstremizm ijtimoiy ekstremizmning xavfli ko'rinishi hisoblanadi. Bu: 1. Boshqa millat, millat yoki etnik guruh vakillariga nisbatan radikal g'oyalar, harakatlar va munosabatni. 2. Bir millatning boshqasidan ustunligini tan olishni. 3. Nomsiz aholini jismoniy yoki siyosiy "tugatish" istagidan iborat buzg'unchiliklarni ifodalaydi. Fashizmni butun sayyorani ostin-ustun qilgan milliy ekstremizmning yorqin namunasi deb atash mumkin.

Xalqaro ekstremizm. Oxirgi o'n yilliklar davomida olimlar xalqaro deb ta'riflagan yangi ekstremistik faoliyat shakllandi. Bu davlatlar o'rtasidagi radikal iqtisodiy va demokratik qarama-qarshilik shaklida namoyon bo'ldi. Bunday ekstremizm turining paydo bo'lishi: a) turli mamlakatlarning rivojlanishini ularning ehtiyojlariga mos ravishda birlashtirishga intilayotgan transmilliy kompaniyalarning paydo bo'lishi: b) G'arb mamlakatlarining bank sektori, xomashyo eksportiga yo'naltirilganligi va b. bilan bog'liq holda ifodalangan bozor, siyosiy va harbiy bosim ko'rinishidagi globallashuv jarayonlari bilan bog'liq.

Ekstremizmning deyarli barcha navlari zo'ravonlik yoki tahdiddan tashqari, "jamoat muammolarini idrok etishda, ularni hal qilish yo'llarini izlashda bir tomonlamalik; fanatizm, o'z tamoyillarini, muxoliflarga o'z qarashlarini singdirish, barcha buyruqlar, ko'rsatmalarni so'zsiz bajartirish; aqlga emas, balki hissiyotlarga, instinktlarga, xurofotlarga tayanish; murosalarga kela olmaslik yoki ularga e'tibor bermaslik" kabilarni namoyon etadi [10;28-b.].

"Radikalizm" tushunchasining ham noaniqligi uni batafsilroq izohlanishni taqozo etadi. "Radikalizm" termini dastlab ijtimoiy muammolarning ildiziga kirish istagini tavsiflash uchun ishlatilgan. Hozirda esa u mavjud ijtimoiy va siyosiy institutlarni tubdan o'zgartirishga qaratilgan siyosiy g'oyalar va harakatlar majmuasiga nisbatan ko'proq qo'llaniladi. Biroq "radikalizm" tushunchasi "ekstremizm"tushunchasi kabi salbiy ma'nolarga ega emas. "Radikalizm" tushunchasi (lotincha radix – ildiz) mavjud ijtimoiy va siyosiy institutlarning eng radikal, hal qiluvchi ("radikal", keskin, tubdan) o'zgarishiga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy g'oyalar va harakatlarni belgilaydi. Zamonaviy foydalanishda radikalizm, avvalambor, hal qiluvchi, "ildiz" g'oyalarga, so'ngra ularga erishish usullariga va ushbu g'oyalar bilan bog'liq tegishli harakatlarga bo'lgan istakni anglatadi.

Zamonaviy siyosiy psixologiyada "radikalizm" tushunchasi: 1) "maqsadga erishish uchun qat'iy va murosasiz harakatlarni o'z ichiga olgan siyosiy jarayonlarni sifatli o'zgartirishning psixologik mexanizmi; 2) chegaradan tashqari chiqishlarga moyil bo'lgan faoliyat yuritish usuli kabi ma'nolarga ega". Radikalizm mavjud siyosiy hodisaga salbiy munosabatda bo'lishga, real vaziyatdan chiqishning mumkin bo'lgan yo'llaridan birini yagona mumkin bo'lgan yo'l sifatida tan olishga asoslanadi. "Radikalizm – bu siyosatdagi hal qiluvchi usul va harakatlarga intilish demak". "Radikalizm – bu maqsadga erishishning o'ta keskin vositalariga amal qiladigan siyosiy harakat. U nigilizm, ekstremizm, terrorizm va inqilobiylik (revolyusinarizm) kabi turli shakllarida namoyon bo'lishi mumkin".

Xulosa (Заключение/Conclusion). Yuqorida keltirilgan barcha mulohazalardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ekstremizm destruktiv (buzg'unchi, vayronkor) radikalizm hisoblanadi. Vayronkor radikalizmning navlaridan biri fanatik mafkuraga, o'zgarishga asoslangan. Yana bir turi fundamentalizm mafkurasiga asoslanadi, uning mohiyati eski ijtimoiy tuzumga qaytish, har xil o'zgarishlar jarayonini sekinlashtirish, muzlatishdir. Siyosatda, fanda va qonunchilikda ekstremizmning mohiyatini, uning subyekti, maqsadi va motivlarini tushunishda olimlar o'rtasida yagona fikr mavjud bo'lmaganligi bois, uni turlicha xarakterda tavsiflashadi. Ilmiy jamoatchilik ekstremizmni keng va tor ma'noda ko'rib chiqib, keng ma'noda ekstremizm "muayyan maqsadlarga erishish uchun keskin qarashlarga asoslanish", tor ma'noda – "muxoliflarni mag'lub etish va ularni yo'q qilishga qaratilgan faoliyat" sifatida ta'riflanadi. Ekstremizm o'z mazmun - mohiyatiga ko'ra, har qanday ko'rinishda "keskin qarash" yoki "faol harakat" shaklida namoyon bo'ladi va konstitutsiyaviy tuzumga va davlat xavfsizligiga bevosita tahdidni yuzaga keltirib chiqaradi.

Aytilganlarni umumlashtirib, quyidagi ta'riflarimizni beramiz:

Ekstremizm – bu ijtimoiy amaliyotning halokatli shaklini ifodalovchi siyosatshunoslik kategoriyasi bo‘lib, uning shakllari inson hayotining ko‘plab sohalarida uchraydi, shaxsni umuminsoniy va madaniy qadriyatlardan uzoqlashtirishga qaratilgan bo‘ladi.

Radikalizm (lotin tilidan. Radix – ildiz) – siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ekstremal usullardan foydalanishga asoslangan ijtimoiy amaliyot turini ifodalovchi siyosatshunoslik kategoriyasi.

Ekstremizm va radikalizmning xavfi nimada? Davlat darajasida siyosiy ekstremizm va radikalizmning barcha shakllari xavfi milliy barqarorlik va xavfsizlikka haqiqiy tahdid hisoblanadi. Ekstremizm va radikalizm:

1. Davlat organlari va muassasalari ishiga to‘sqinlik qilish.
2. Saylovlar va ovoz berishda uzilishlar.
3. Irqiy, etnik va boshqa turdagi kelishmovchiliklarni qo‘zg‘atish.
4. Yosh avlodni boshqa ijtimoiy guruhlarga nisbatan nafrat va dushmanlik shaklida tarbiyalash.
5. Tarixni qasddan buzish, fashizm va natsizm g‘oyalarining tiklanishi.
6. Isyonlar, terrorizm, qo‘zg‘olon yoki fuqarolar urushi rivojlanishiga ko‘maklashish kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Панин В.Н. Религиозный экстремизм как один из факторов дестабилизации социально-политической жизни на Северном Кавказе. Пятигорск, ПГЛУ, 2013.

(2). Афанасьев Н.И. Идеология терроризма. Социально-гуманитарные знания. 2002, № 1.

(3). Ўзбекистон Республикасининг “Экстремизмга қарши курашиш тўғрисида”ги қонуни. URL. https://lex.uz/docs/3841957.

(4). Хлебушкин А.Г. Публичные призывы к осуществлению действий, направленных на нарушение территориальной целостности Российской Федерации. Москва, 2010, с. 2.

(5). Сергун Е.Р. Экстремизм в российском уголовном праве. Автореф. дис. ... канд. юрид. нау., Тамбов, 2009, с. 8.

(6). Ожегов С.И., Скворцова. Л.И. Толковый словарь русского языка. Москва, 2009, с. 340.

(7). Солодовников С.Ю. Большой энциклопедический словарь. Философия, социология, религия, эзотеризм, политэкономия, главн. науч. ред. и сост., Минск, 2002, с. 967.

(8). Резолюция 1344. Об угрозе для демократии со стороны экстремистских партий и движений в Европе. 29.09.2003 г. URL.https://www.un.org.agression

Alimov Sardor Komil o‘g‘li (O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta o‘qituvchisi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; E-mail: sardoralimov2507@gmail.com)

RAQAMLI JAMIYATDA INTELLEKTUAL MIGRATSION JARAYONLARNING IJTIMOIY DETERMINANTLARI: FALSAFIY TAHLIL

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida intellektual migratsiyani belgilovchi omillar faqat iqtisodiy faktorlar bilan izohlanmasdan, bilim, axborot, raqamli infratuzilma, institutsional ishonch, erkinlik, identiklik va ijtimoiy mas’uliyatning o‘zaro bog‘liqligi asosida ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Tahlil natijasida intellektual migratsiyaning iqtisodiy, institutsional-siyosiy, ilmiy, infratuzilmaviy va aksiologik determinantlari bir-biri bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishi, inson kapitali esa hududga tegishli resursdan ko‘ra raqamli tarmoqqa xos va transmilliy kapital sifatida namoyon bo‘lishi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli jamiyat, intellektual migratsiya, inson kapitali, intellektual kapital, raqamli ko‘chmanchilik, ijtimoiy determinantlar, transmilliy intellektual harakat.*

Алимов Сардор Комил угли (Старший преподаватель Правоохранительной академии Республики Узбекистан, доктор философии (PhD) по философским наукам, доцент;
E-mail: sardoralimov2507@gmail.com)

СОЦИАЛЬНЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ПРОЦЕССОВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ МИГРАЦИИ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ: ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В данной статье факторы, определяющие интеллектуальную миграцию в условиях цифрового общества, объясняются не только экономическими факторами, но и анализируются с социально-философской точки зрения на основе взаимосвязи знаний, информации, цифровой инфраструктуры, институционального доверия, свободы, идентичности и социальной ответственности. В результате анализа обосновано, что экономические, институционально-политические, научные, инфраструктурные и аксиологические детерминанты интеллектуальной миг-*